

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH (ASAKABANK MISOLIDA)

Umirova Sakinabonu Dilshod qizi

Bank-moliya akademiyasi 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, “Asakabank” ATB misolida risklarning shakllanish omillari, ularning bank barqarorligiga ta’siri hamda boshqaruv mexanizmlari chuqur o‘rganilgan. Tadqiqot davomida kredit, likvidlik, foiz va operatsion risklar dinamikasi tahlil qilinib, risklarni kamaytirish uchun raqamli texnologiyalar, Basel III standartlari, Value-at-Risk modeli va stress-test usullarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Natijada, risklarni boshqarishning kompleks modeli ishlab chiqilib, bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banki, risk-menejment, kredit riski, likvidlik riski, kapital yetarliligi, Basel III, Asakabank, stress-test, Value-at-Risk, raqamli transformatsiya.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyati murakkab moliyaviy muhitda amalga oshiriladi. Banklarning asosiy vazifasi - moliyaviy vositachilikni samarali tashkil etish bo‘lib, bu jarayonda ular turli turdagi risklarga duch keladi. Risklarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimi bank faoliyatining barqarorligini ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston bank tizimida so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashgan bo‘lsa-da, risklarni kompleks boshqarish tizimi hali to‘liq shakllanmagan. Xususan, Asakabank ATB misolida kredit va likvidlik risklarining ortishi, kapital yetarliligining pasayishi hamda ichki nazorat mexanizmlarining samarasizligi kuzatilmoqda. Shu bois, risk-menejment tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

Adabiyotlar sharxi

Risk-menejment nazariyasi bo'yicha xorijiy olimlardan F. Nayt riskni "o'lchanadigan noaniqlik" deb izohlaydi. E. Altman (1968) ishlab chiqqan Z-score modeli bankrotlik xavfini baholashda keng qo'llaniladi. V. Acharya va L. Pedersen (2005) likvidlik riskining aktivlar narxiga ta'sirini empirik jihatdan isbotlaganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar N. Jumayev, B. Berdiyarov, M. Maxmudova, N. Karimovlar bank risklarini boshqarish bo'yicha milliy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Ularning tadqiqotlarida risklarni kamaytirishda kapital yetariligi, raqamli monitoring tizimlari va stress-test tahlilining ahamiyati ta'kidlangan.

Xalqaro amaliyotda Basel III standartlari bank kapitali, likvidligi va barqarorligini ta'minlashda asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. Asakabank tajribasida esa bu yondashuvlarning ayrim elementlari joriy etilgan bo'lsa-da, kompleks risk monitoring tizimi yetarli darajada shakllanmagan.

Asosiy qism

Bank faoliyatidagi risk - bu foyda kutilgan natijadan og'ish ehtimoli bilan tavsiflanadigan noaniqlikdir. Risklarni boshqarish tizimi bank aktiv va passivlarini muvofiqlashtirish, moliyaviy barqarorlikni saqlash hamda potentsial zararlarni minimallashtirishni ko'zlaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida bank risklarini boshqarish tizimi to'g'risida xulosalarni shakllantirishga harakat qildik. Bank risklarini boshqarish tizimi – bu bank faoliyatining noaniqlik sharoitida ijobiy moliyaviy natijalarga erishish uchun bank xodimining usul va metodlarni qo'llagan holdagi majmui deb qarash mumkin. Shuningdek, bo'lishi mumkin bo'lgan risklarni bashoratlash va uning salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan choralarni amalga oshirishni o'zida aks ettiradi. Mazkur tizim turli mezonlar bilan ifodalanishi lozim. Biz bank risklarining turiga binoan ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- kredit riskini boshqarish;
- balanslanmagan likvidlik riskni boshqarish;
- foiz riskni boshqarish;
- operatsion riskni boshqarish.

Qayd etib o'tilgan risklarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, unga ko'ra banklar darajasida risklarni boshqarish, moliyaviy markazlar

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

darajasida va mijozlar, bank mahsulotlari miqyosida risklarni boshqarish kabilarga ajratiladi. Keltirilgan mezonlar doirasida bank risklarini boshqarish elementlardan tashkil topishi mumkin: texnologiyasi quyidagi

- riskni minimallashtirishga qaratilgan bank faoliyati strategiyasini tanlash;
- riskni yuzaga kelishini kuzatish tizimini ishlab chiqish;
- bankni risklardan himoya etish tizimini tanlash.

Bank faoliyatida strategiyani tanlash bank xizmatlari bozori va alohida segmentlari xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. O‘z navbatida, yangi xizmatlarni yangi mijozlar bozoriga olib chiqib sotish strategiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Riskni minimallashtirish tizimi uni aniqlash va baholash, monitoring qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bankni riskdan himoya qilish joriy holatda riskni boshqarish va uni minimallashtirish metodlari bilan ifodalanadi. Riskni joriy boshqarish ko‘rsatkichlarni kritik nuqtasidan uzoqlashtirishga qaratilgan bank operatsiyalar bo‘yicha tezkor qarorlarni qabul qilish bilan amalga oshiriladi.

Risklarni boshqarish jarayoni to‘rt bosqichdan iborat: riskni aniqlash, baholash, kamaytirish va monitoring qilish. Basel III yondashuvida esa bu jarayon kapital yetarliligi, likvidlik koeffitsienti va stress-test natijalariga asoslanadi.

Risklarni boshqarish xavflarni aniqlash, baholash, nazorat qilish va minimallashtirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir. Uning maqsadi riskni butunlay yo‘qotish emas, balki uni foyda bilan muvozanatlashtirish, ya’ni “qabul qilinadigan risk” doirasida saqlashdir.

Banklarda risklarni boshqarish usullari turli tamoyillar, vositalar va mexanizmlarga asoslanadi. Ularni iqtisodiy mohiyatiga, ta’sir yo‘nalishiga va boshqaruv darajasiga qarab quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:


Bu usullar bankning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular riskni makro darajada boshqarishni nazarda tutadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь



1-rasm. Risklarni boshqarishning strategik usullari¹

Bank faoliyatida risklarni boshqarishning strategik usullari - bu uzoq muddatli istiqbolda bankning moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va foydaliligini saqlab qolish maqsadida qo'llaniladigan kompleks chora-tadbirlar tizimidir. Strategik yondashuv risklarni faqat qisqa muddatli zararlarning oldini olish vositasi sifatida emas, balki bankning barqaror rivojlanish modeli sifatida ko'radi. Shu bois strategik risk boshqaruvi bank siyosatining, korporativ boshqaruv tizimining va kapital rejalashtirish mexanizmlarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bank tizimida strategik yondashuvning asosiy maqsadi – xavf va daromad o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlash, ya'ni riskni butunlay bartaraf etish emas, balki uni qabul qilinadigan darajada saqlab qolishdir. Shu bilan birga, bu usullar bankning faoliyat yo'nalishlari, portfel tuzilmasi va tashqi iqtisodiy muhit o'zgarishlariga mos ravishda doimiy takomillashtirilib boriladi.

Tijorat banklari faoliyatida uchraydigan asosiy risklar - kredit riski, likvidlik riski, operatsion va foiz riski bo'lib, ularning barchasi bir-biri bilan o'zaro

¹ Muallif ishlanmasi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

bog‘liqdir. Kredit riskining oshishi kapital yetarliligini kamaytiradi, likvidlik riski esa to‘lovga qobiliyatsizlik xavfini kuchaytiradi.

2024-yil yakunlari bo‘yicha “Asaka” ATB kredit portfeli tarmoqlar kesimida diversifikatsiya tamoyiliga asoslangan holda shakllantirilgan. Kredit resurslarining asosiy qismi, ya’ni 61 foizi sanoat sohasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu bankning iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi (9%) va qurilish (8%) yo‘nalishlariga ajratilgan mablag‘lar esa ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va investitsion barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

1-jadval

“Asaka” ATB kredit portfelining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti²
(2024-yil holatiga)

№	Tarmoq nomi	Ulush i, %	Izoh
1	Sanoat	61	Asosiy ulush sanoat ishlab chiqarishi, energetika va avtomobilsozlik loyihalariga to‘g‘ri keladi.
2	Qishloq xo‘jaligi	9	Agrosanoat klasterlari, issiqxona xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo‘naltirilgan.
3	Qurilish sohasi	8	Uy-joy, infratuzilma va ishlab chiqarish binolari qurilish loyihalarini moliyalashtirishga qaratilgan.

² <https://piamg.uz/uz/blog/show/analiz-bankovskogo-sektora-za-ii-kvartal-2022-goda>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

4	Transport va kommunikatsiya	5	Logistika, avtomobil yo'llari va axborot kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni moliyalashtiradi.
5	Savdo sohasi	7	Chakana savdo, xizmat ko'rsatish va kichik biznes subyektlarini kreditlash.
6	Boshqa sohalar	10	Ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, axborot texnologiyalari va ijtimoiy loyihalar yo'nalishlari.
Jami	-	100%	Kredit portfeli diversifikatsiyalashgan, risklar tarmoqlar bo'yicha yoyilgan.

Shuningdek, transport va kommunikatsiya (5%) hamda savdo sohalari (7%) uchun taqdim etilgan kreditlar bankning kichik biznes va xizmatlar sektoridagi faolligini ifodalaydi. Ijtimoiy yo'nalishdagi loyihalar (10%) - ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari va turizm tarmoqlarini moliyalashtirish orqali bankning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishga qo'shgan hissasini ko'rsatadi. Ushbu balansli taqsimot kredit risklarini turli sohalar o'rtasida tarqatish imkonini bergan va portfel barqarorligini mustahkamlagan.

Tarmoqlararo diversifikatsiya siyosati natijasida "Asaka" ATB nafaqat sanoatga, balki xizmatlar sektori va qishloq xo'jaligiga ham barqaror moliyaviy oqimni yo'naltirgan. Bu esa bankning risklarni muvozanatlashgan holda boshqarish strategiyasini amalda samarali qo'llayotganini tasdiqlaydi.

2-jadval.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

“Asaka” ATB aktivlar sifati va risk ko‘rsatkichlari (2020–2024-yillar)³

Ko‘rsatki chlar	2 020	2 021	2 022	2 023	2 024
Jami aktivlar (trln so‘mda)	2 9,8	3 3,9	3 9,6	4 5,5	5 1,2
Kredit portfeli ulushi (%)	8 4,6	8 5,1	8 5,7	8 6	8 5,9
Muammol i kreditlar ulushi (NPL, %)	5, 4	4, 9	4, 5	4, 2	3, 9
Milliy valyutadagi aktivlar ulushi (%)	4 5	4 9	5 2	5 4	5 6
Kapital yetarliligi koeffitsienti (CAR, %)	1 3,2	1 3,8	1 4,5	1 5,1	1 5,6
Risk darajasi indeksi (shartli birlikda)	1	0, 91	0, 86	0, 81	0, 76

2020–2024-yillar davomida “Asaka” ATB aktivlarining hajmi va sifati barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. Bankning jami aktivlari besh yil ichida 29,8 trillion so‘mdan 51,2 trillion so‘mga yetgan. Shu bilan birga, kapital yetarliligi koeffitsienti (CAR) 13,2 foizdan 15,6 foizgacha oshib, xalqaro Basel III talablaridan yuqori darajada saqlangan.

³ <https://piamg.uz/uz/blog/show/analiz-bankovskogo-sektora-za-ii-kvartal-2022-goda>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

“Asaka” ATB aktivlar sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlar 2020–2024-yillarda sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga ega bo‘ldi. Standart aktivlar hajmi 25,4 trillion so‘mdan 41,2 trillion so‘mgacha ko‘tarilib, 62 foizlik o‘sish qayd etildi. Bu, avvalo, kredit baholash tizimi va ichki risk-monitoring mexanizmlarining takomillashgani bilan izohlanadi.

Substandart aktivlar hajmi biroz oshgan bo‘lsa-da, ularning ulushi umumiy portfelda kamaygan. Bu bankning ehtiyotkor kredit siyosati yuritayotganini va riskli mijozlarga nisbatan differensial yondashuvni kuchaytirganini ko‘rsatadi. Qoniqarsiz aktivlar nisbatan barqaror bo‘lib, ularning umumiy ulushi 1 foizdan oshmagan.

Eng muhim jihatlardan biri shundaki, shubhali va umidsiz aktivlar hajmi yil sayin qisqarib borgan. 2020-yilda 252 mlrd so‘mni tashkil etgan shubhali kreditlar 2024-yilda 198 mlrd so‘mgacha kamaygan. Umidsiz kreditlar hajmi esa 175 mlrd so‘mdan 126 mlrd so‘mgacha tushib, qarzdorlikni undirish tizimining samaradorligi oshganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, “Asaka” ATB 2020–2024-yillar oralig‘ida:

- risk-menejment tizimini raqamli asosda takomillashtirgan;
- kredit portfelini diversifikatsiyalash orqali risklarni muvozanatlashtirgan;
- IFRS 9 xalqaro standartlariga asoslangan kredit sifatini baholash tizimini joriy etgan;
- muammoli kreditlarni erta aniqlash va qayta moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirgan.

Natijada, bankning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, aktivlar sifati yaxshilangan, risk darajasi esa sezilarli darajada pasaygan. 2020–2024-yillar “Asaka” ATB uchun risklarni boshqarishning tizimli va samarali davri sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Asakabank ATBda risklarni boshqarish tizimi takomillashtirishga muhtoj. Kredit va likvidlik risklarini kamaytirish uchun Basel III standartlariga mos kapital siyosati, Value-at-Risk modeli va stress-test usullarini joriy etish muhim.

Risklarni boshqarishning raqamli modeli - bu bank faoliyatining xavfsizligi, shaffofligi va foydaliligini ta‘minlaydigan asosiy mexanizm hisoblanadi. Shuningdek, Asakabank tajribasi asosida boshqa tijorat banklarida ham

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

integratsiyalashgan risk-menejment tizimini shakllantirish, sun'iy intellekt asosida risk prognozini ishlab chiqish hamda ichki nazoratni avtomatlashtirish istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Acharya, V., Pedersen, L. (2005). *Liquidity Risk and Expected Returns*. Journal of Finance.
2. Altman, E. (1968). *Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy*. Journal of Finance.
3. Basel Committee on Banking Supervision (2023). *Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms*.
4. Jumayev, N. (2021). *O'zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlari*. TDIU ilmiy jurnali.
5. Maxmudova, M. (2020). *Asakabank ATB faoliyatida risklarni tahlil qilish va boshqarish usullari*.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni "2020-2025-yillarda bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida."
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). *Bank tizimining barqarorligi to'g'risidagi yillik hisobot*.